

**О‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIR SEMALI VA
KO‘P SEMALI SO‘ZLAR**
**“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” hamda “Ikki karra ikki besh”
asarlari asosida**

Termiz davlat universiteti talabasi
Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi
Ilmiy rahbar: D.Ergasheva

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda bir va ko‘p semali leksemalar ha nisbatan bildirilgan munosabat tahlil etilgan bo‘lib, unda ko‘p ma‘noli va omonim so‘zlar o‘rtasida farqlar ochib berilgan. Shu bilan birgalikda ilmiy fikrlar misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Bir semali, ko‘p semali, omonim so‘zlar, ilmiy fikrlar...

Annotation. In this article, the relationship between single and polysemous lexemes in linguistics is analyzed, and the differences between polysemous and homonymous words are revealed. At the same time, scientific ideas are highlighted on the basis of examples.

Keywords: one-semeli, many-semeli, amen words, scientific thoughts...

R.Sayfullayeva va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan darslikda ta‘kidlanishicha, formal tilshunoslik bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlarni farqlagani kabi sistem tilshunoslikda ham bir semali va ko‘p semali leksemalar farqlanadi. Chunki so‘z leksemaning bir martalik ko‘rinishi bo‘lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega.

Leksema bir tushuncha ifodalasa, u bir semali leksema deyiladi. Masalan: [qalam]leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shuning uchun ham bir semali leksema hisoblanadi.

Leksema ko‘p ma‘noli bo‘lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan, sememalarda farqli sememalar mavjud bo‘ladi. Har bir sememaning nutqiy voqealanishidagi o‘ziga xos, har bir sememada asosida bog‘lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo‘ladi. [Sayfullayeva.2009:84]

Kiyik, ko‘ngil, ta‘limot, daraxt, jonivor, haqiqat, xonadon, qaldirg‘och, dengiz, zarra, vasvasa, magnit, muhabbat, rashk, go‘dak, kafan, qabrtosh, sopol, kesak, yuk, shamol, qavm, izg‘irin, tabiat, gulshan, alaf, botqoq, nilufar, chinor, laylak, sharh, jadval, shoh, mo‘jiza, g‘azab, tunuka, tarnov, narvon, sigaret, ziyorat, maosh, tuyg‘u, yoshlik, sog‘lik, tinchlik, gunoh, shatranj, orol, qit‘a, elektr, farishta, qum, lochin, olcha, zulm, xalq, madaniyat, illat, nigilizm, tafakkur. Masalan: *Millatchilik juda xavfli illat. Milliy nigilizm esa undan ham xatarli.*

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan daraxt, ko‘ngil, qaldirg‘och kabilar bir ma‘noli so‘zlar, ya‘ni ular faqat bir ma‘nonigina, o‘z ma‘nosini bildiradi.

Ko‘p semali so‘zlar yuzasidan fikr yuritadigan bo‘lsak, ular asarda quyidagicha: Odamning qulog‘i-devorning qulog‘i, bola og‘ziga soldidish og‘zini yop, odamning boshi-ishning boshi-yo‘lning boshi, ko‘ylakning etagi-tog‘ning etagi-ariqning etagi, daraxtning ko‘zi-odamning ko‘zi-uzukning ko‘zi, ko‘ylakning yoqasi-ko‘lning yoqasi-yo‘lning yoqasi, dunyo bozori-sevgi bozori-kiyim bozori, odamning yuragi-olamning yuragi-yerning yuragi, velosiped zanjiri-hayot zanjiri-to‘qimalar zanjiri, farzand dog‘i-kiyimning dog‘i-qalbning dog‘i...

Ko‘chma ma‘noni ko‘proq tana a‘zolari misolida kuzatishimiz mumkin. Masalan, odamning qulog‘i misolimiz devorning qulog‘i bilan yoki ko‘ylakning etagi tog‘ning etagi kabilar bilan ko‘p ma‘noli so‘zlarni ifodalab kelsa, yana ular asosiy ma‘no anglatishi bilan bir qatorda ko‘chma ma‘nolarini ham anglatadi. Ko‘rganimizdek, devorning qulog‘i, tog‘ning etagi kabilar. Masalan: o‘z ma‘nosida – velosiped zanjiri, ko‘chma ma‘noda-hayot zanjiri-to‘qimalar zanjiri. Shu bilan birgalikda ko‘p ma‘noli so‘zlarni omonim so‘zlardan farqli jihatlarini ajratib olishimiz ham muhim. Ko‘chma ma‘noli so‘z bu-bitta so‘zning bir necha ma‘no ko‘rinishlarida ifodalanishi bo‘lsa, *ko‘ylakning yoqasi – ko‘lning yoqasi*.

Omonim-bir xil shaklga ega bo‘lgan bir necha so‘zlar hisoblanadi. Masalan, chang (g‘ubor), chang (cholg‘u asbobi) Xuddi shunday ko‘p ma‘noli so‘zlarning o‘rtasida ma‘no bo‘g‘liqligi seziladi. Maslan, odamning ko‘zi, shning ko‘zi har ikki misolda ham bir xil ma‘no ya‘ni ko‘rish, mo‘ljal ma‘nosi mavjud. Omonim so‘zlar o‘rtasida bog‘liqlik sezilmaydi. Yuqoridagi misol kabi ular mazmunida hech bir ma‘noviy bog‘liqlik mavjud emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bir semali so‘zlar yakka ma‘no anglatgani kabi ko‘p ma‘noli hamda omonim so‘zlar ham bir-biridan keskin farqlanadi. Ularni o‘z o‘rnida ajratib olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Sayfullayeva va b.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.T.Fan va texnologiya.2009.391-b.
2. B.Mengliyev.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Tafakkur bo‘stoni,T.2018.
3. X.Nematov P.Rasulov.O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.T.O‘qituvchi.1995.
4. www.net.ziyo.uz.